

**HUQUQIY TARBIYA –HUQUQIY ONG VA HUQUQIY
MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING ZARUR SHARTI**

ПРАВОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ – НЕОБХОДИМОЕ УСЛОВИЕ
ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОГО ОСВЕЩЕНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ

LEGAL EDUCATION - A NECESSARY CONDITION FOR IMPROVING
LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE

Mutalibjonov Usmonjon

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasи o`qituvchisi

Norimonova Gulmira Ulug`bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq

ta`limi yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy tarbiya, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning o`rni kattaligi va buning uchun har bir shaxsda eng avvalo, huquqiy immunitetni va huquqiy savodxonligini yaxshilash borasida so`z yuritiladi. Shu jumladan, huquqiy davlatni shakllantirishda huquqiy tarbiya, huquqiy ong va huquqiy daniyatning ahamiyati kattaligi ko`rsatilgan.

Аннотация: В этом документе говорилось о важности повышения юридического образования, правосознания и дееспособности, а для этого, прежде всего, повышения юридического иммунитета и правовой грамотности каждого человека. В том числе показано значение правового воспитания, правового сознания и правового воспитания в формировании правового мировоззрения.

Abstract: This document talked about the importance of raising legal education, legal awareness and legal capacity, and for this, first of all, improving legal immunity and legal literacy in every person. Including, the importance of legal education, legal consciousness and legal education in the formation of legal long-standing is shown.

Kalit so`zlar: fuqarolik jamiyati, huquq, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar, huquqiy ta`lim

Ключевые слова: гражданское общество, право, правовая культура, правосознание, юридическое образование, государственные органы, физические и юридические лица, юридическое образование.

Key words: civil society, law, legal culture, legal awareness, legal education, state bodies, individuals and legal entities, legal education.

Kirish: Yangi O`zbekistonda demokratik davlat qurar ekanmiz, eng birinchi navbatda jamiyatdagi har bir shaxsning ongiga huquqiy tarbiya tushunchasini singdirishimiz lozim. Asosan, huquqiy tarbiya tufayli huquqiy ong va huquqiy madaniyatimiz shakllanadi va rivojlanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta`kidlaganidek: “Biz qanchalik mukammal qonunlarni yaratmaylik, qanday islohotlar o`tkazmaylik, agar fuqarolarning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yetarli bo`lmasa,kutilgan natijalarga erishish mushkul”.

Mening fikrimcha, huquqiy bilim va huquqiy tarbiyani fuqarolarning yoshligidan boshlab o`rgatila boshlanishi huquqiy demokratik davlat yaratish uchun muhim bo`lgan omullardan biri hisoblanadi.

Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsda huquqiy ongi shakllantirish, huquqiy normalarni hurmat qilishni, ularga ixtiyoriy, ongli ravishda amal qilishni tarbiyalash hisoblanadi.

Material va metodlar: Huquqiy tarbiya vositalari va shakllari bilan bir qatorda tarbiya metodlarini, shuningdek, ularni qo`llashning ilmiy asoslari va tavsiyalarini tadqiq etish huquqiy tarbiya nazariyasini ishlab chiqishda katta ahamiyat kasb etadi. Huquqiy tarbiyaning asosiy vazifasi bu- fuqarolarning ongida qonunlarni anglash hamda ularni tushunish, huquq normalariga rioya qilishdir.

Huquqiy tarbiya- bu jamiyat a`zolarining yurish- turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlarini doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta`sir etish orqali singdirib boorish tushuniladi.

Huquqiy tarbiya- bu huquqiy tarbiya almashish bo`yicha davlat, jamoat tashkilotlari, alohida fuqarolarning bir maqsadga yo`naltirilgan faoliyati.

Huquqiy targ`ibot, huquqiy ta`lim, yuridik amaliyot va o`zini o`zi tarbiyalash huquqiy tarbiya vositalariga mansub. Shu jumladan, A.Avloniy o`zining “Turkiy guliston yohud axloq” asarida tarbiyaga quyidagicha ta`rif beradi: “Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir”.

Huquqiy tarbiya qay darajada mukammal bo`lsa, huquqiy madaniyat yaratish shu darajada oson bo`ladi.

Huquqiy tarbiyani rivojlantiruvchi qator vositalar bor. Bular haqida Sh.A.Saydullayev “Davlat va huquq nazariyasi” darsligida quyidagilarni sanan o`tadi:

Huquqiy ta`lim;

Huquqiy targ`ibot va tashviqot;

Yuridik amaliyot;

O`zini-o`zi tarbiyalash.

Huquqiy tarbiyani rivojlantirishning muhim omillaridan biri huquqiy targ`ibotdir. O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning 1997-yil 25-iyunda qabul qilingan “Huquqiy tarbiyani yaxshilash aholini huquqiy darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik

fikrini o`rganish ishini yaxshilash haqida”gi PF-1791-sonli farmonida huquqiy ma`rifat targ`iboti markazining vazifalari va faoliyat yo`nalishlari ko`rsatilgan.Shuningdek, joylarda huquqiy targ`ibot ishlarini muvofiqlashtirish yuzasidan Prezidentimiz Sh.M.Mirzyoyev tomonidan 2019-yil 9-yanvarda qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to`g`risida”gi farmonida o`quvchi yoshlar o`rtasida huquqiy tarbiya va huquqiy bilimlarni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham o`rin olgan.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyat haqida so`z borar ekan, huquqiy ta`lim hamda tarbiyani jamiyatimiz hayotida oliy qadriyat sifatida kiritmog`imiz lozim. Huquqiy tarbiyaning insonlar ongida joy olishi degani bu- huquq to`g`risida o`z qarashlariga ega bo`lishi, o`zining shaxsiy, ijtimoiy, siyosiy huquqlarini bilishi va eng asosiysi undan foydalana olishi, qanday erkinliklari va burchlari borligidan xabardor bo`lishligini bildiradi.

“Huquqiy ong- huquqning jamiyat ehtiyojlarini ifodalovchi, huquqni ijtimoiy voqealikka tatbiq etuvchi, shaxslarning xulq-atvorini huquq normalariga qay darajada mos kelishini tushunib olishga ko`maklashuvchi hamda baholash vositasi sifatida xizmat qiladi.”¹ Jumladan, professor Islomov huquqiy ongga shunday ta`rif beradi: “Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g`oyalar, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta`riflash mumkin”.

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va majburiyatlariga rioya etish, huquqiy normalarni bajarish, huquqiy talablarni bilish hamda ularni hurmat qilishga oid barcha masalalar kishilarning huquqiy madaniyati darajasiga bog`liq hisoblanadi.

“Huquqiy madaniyat- bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya etilishi tushuniladi.”² Huquqiy madaniyat- jamiyat va umumiyligi madaniyatning uzviy tarkibiy bo`lagi.

U.Tajixanov va A.Saidovlar o`zlarining “Huquqiy madaniyat nazariyasi” nomli kitobida huquqiy madaniyatga quyidagicha ta`rif berishadi: “Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquqiy tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo`lgan hurmati, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo`lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz”.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin, aholing huquqiy onggi va huquqiy madaniyatini oshirishga e`tibor beriladi. Jumladan, 1997-yil 29-avgustda O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” qabul qilindi. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi

¹ <http://uz.m.wikipedia.org>.

² <https://buxdu.uz>

Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi hisoblanadi.

Jamiyatimizda kishilar qanchalik huquqiy madanikyatini yuqori bo`lsa, qonunlarni, yuridik adabiyotlarni o`qib ularga amal qilsa edi huquq buzilishi shunchalik kam bo`lar edi. Aslini olganda, huquqiy madaniyati yuksak bo`lgan inson qonunlarga itoatkor va unga hamisha bo`ysunib, hamda qonunlarga hurmat bilan qaraydi. Yuksak huquqiy madaniyat- demokratik jamiyat poydevori hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish davr talabi. Shaxslarning huquqiy jihatdan savodxon bo`lishi uchun ularga huquqiy tarbiya berish va bu orqali huquqiy madaniyatni yuksaltirishimiz mumkin. Bundan tashqari, ta`lim muassasalarida huquqiy ta`lim-tarbiya va targ`ibot ishlariga e`tibor qaratishimiz lozim. Mening fikrimcha, qonunlarni hurmat qilib unga amal qilish bu- huquqiy madaniyatdir. Hozirgi kunda mamlakatimiz fuqarolaring huquqiy onggi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga katta e`tibor qaratilayotganligining sabablaridan biri ham shu hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.A.Sadullayev. Davlat va huquq nazariyasi.-T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2022.
2. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to`g`risida”gi 9.01.2019-yilgi PF-5618-sonli farmonidan. 1- ilova/ 10- band.
3. U.Tajixanov, A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi 1- tom.-Toshkent. 1998, 11- bet.